O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIK QOIDALARI

Amaliy qo'llanma



adliya.uz

@huquqiyaxborot

advice.uz
Huquqiy axborot portali

fb.com/groups/adliya

O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi

BOLALAR UCHUN
XAVFSIZLIK QOIDALARI

Amaliy qo‘llanma



MUNDARIJA

4 Muqaddima
6 Olti “yo‘q” qoidasi
8 Notanish inson
10 Ko‘chada
14 Yo‘lda va jamoatchilik transportida
18 Metroda
22 Ko‘p qavatli uylar yo‘lagida
24 Velosipedlar va roliklar uchayotganda
26 Olomon orasida
31 Jinoyatga aralashib qolmaslik uchun
33 Uyda
34 Yong‘in xavfsizligi
38 Internet xavfsizligi
40 Ota-onalarga eslatma
44 Kerakli telefon raqamlari

MUQADDIMA

Hurmatli ota-onalar!

Bolalar esini tanib, gapga tushunadigan yoshga yetishi bilan ularga xavfsizlik qoidalarini anglatib borish lozim. Xavfsizlik qoidalari bola u yoki bu sababga ko‘ra yolg‘iz qolgan sharoitda uni himoya qiluvchi va xavflardan asrovchi xatti-harakatlar majmuidan iborat.

Bola yoshligidanoq insonlar har xil bo‘lishini va faqat o‘zi tanigan odamlar bilangina muloqot qilish kerakligini bilishi lozim. Xavfsizlik qoidalarini yaxshi bilgan bola murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi va o‘zini xavfdan mustaqil ravishda himoyalashi mumkin.

Bolalarga xavfsizlik qoidasini o‘rgatganda, aslo ularni qo‘rqitish yo‘lidan bormang. Aksincha, tushuntirish, oqibatlarini anglatish, sabab – oqibat zanjirini ularga ko‘rsatib berish lozim. Ko‘r-ko‘rona qo‘rqqan boladan ko‘ra xavfni tushungan va anglagan bola xavfsizroq bo‘ladi.

Qo‘lingizdagi qo‘llanma 3 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan. Kitobchani bolalaringizga bering, o‘qishni bilmasa, o‘zingiz o‘qib bering, ma’lumotlarni ularning ongiga singdiring, qoidalarni qaytarishini so‘rang. Ushbu qoidalar ularning hayotida naqadar muhim rol o‘ynashini tushuntiring.

OLTI "YO'Q" QOIDASI

“Olti “yo‘q” qoidasi” – xavfsizlik qoidalarining asosi. Bularni har bir bola bilishi kerak.

1. Begonalar bilan gaplashma, ularga eshik ochma va ularni uyga kiritma.
2. Notanish insonlar bilan uy yo‘lagiga kirma va liftga chiqma.
3. Begonalarning mashinasiga chiqma.
4. Darslar tugagach maktabda qolib ketma, ayniqsa, qorong‘i tushganda.
5. Begonalar bilan hech qayerga borma, qanchalik qiziqarli narsa taklif qilsalar ham, ular bilan birga ketma.



O‘smirlar quyidagi uch qoidaga amal qilishlari kerak:

- Uydan chiqib ketayotganda har doim qayerga ketayotganingni va sen bilan qanday bog‘lanish mumkinligini aytib ket.
- Tasodifiy tanishuvlar, notanish jamoalar va tadbirlarga takliflardan uzoq bo‘l.
- Telefoningni o‘chirma va doim aloqada bo‘l.



NOTANISH INSON



NOTANISH INSON KIM?

Bolajon, notanish inson – bu sen tanimagan, yaxshi bilmagan har qanday odam.

Notanish kimsa seni ismingni aytib chaqirishi mumkin. Meni oying (yoki dadang) yubordi deyishi, ular betob bo‘lib qolishdi (kasalxonaga tushib qolishdi) deyishi va seni ular oldiga olib borishga va’da berishi mumkin.










ULARGA ISHONMA!

Nima demasinlar, faqat “yo‘q” deb javob qaytar.

Chunki ota-onang biror muammoga duch kelgan taqdirda, avvalo kattalarga murojaat qiladilar, sening yoningga ham o‘zingga tanish bo‘lgan insonlarni yuboradilar.

Agar notanish inson baribir seni tinch qo‘ymasa, bor ovozing bilan “men sizni tanimayman!” deb baqir. Odamlar gavjum joyga qoch yoki imkon bo‘lsa, ota-onangga qo‘ng‘iroq qil.





KO'CHADA






Uydan chiqishda har doim qayerga kim bilan ketayotganingni, qayerda bo‘lishingni va qachon qaytishingni uydagilarga aytib ket. Agar uyga qaytishingda qorong‘i tushib qolsa, yaqinlaringdan seni kutib olishlarini so‘ra.

Jamoat transportida haydovchiga yaqinroq o‘tir, toki u seni ko‘rib tursin. Notanish yo‘lovchilar bilan gaplashma, ularga qayerga ketayotganing va qayerda yashashingni aytma.



Qorong‘ida ko‘chada yurma. Vaziyat taqozosiga ko‘ra qorong‘i tushib qolganda ko‘chada yolg‘iz ketayotgan bo‘lsang, odamlar ko‘p joylardan yur. Yerosti yo‘lidan o‘tayotganda ham odamlar bilan birga o‘t.





Kimsasiz ko‘chalar, maydonchalarda o‘ynama, tashlandiq qurilish maydonlari va hech kim yashamaydigan eski uylarga borma.

Kimdir seni ta’qib qilayotgandek tuyulsa, imkon qadar tez odam gavjum joylarga o‘tib ol, militsioner yoki qo‘riqchilarga murojaat qil.







Qarshingdan qattiq gaplashib kelayotgan odamlar guruhi yoki mast odam chiqib qolsa, yo‘lning narigi tomoniga o‘tib ol yoki biror muyulishga kirib ket. Ular bilan gap talashma.




Uyga faqat o‘zingga tanish yo‘nalish bo‘yicha, o‘zing yaxshi biladigan transport vositasida yetib ol. Hech qachon be-gona mashinani to‘xtatma va kimdir uyingga olib borib qo‘yishni taklif qilsa, rozi bo‘lma.



Birov yo‘lni, biror manzilni ko‘rsatib yuborishni so‘rasa yoki boshqa narsani iltimos qilsa, iltimosini bajarish uchun aslo uning mashinasiga chiqma.



Yo‘l chetidan ketayotganingda, yo‘nalishni shunday belgilaginki, mashinalar senga qarama-qarshi harakatlansin.



Biror notanish inson birovning eshigini taqillatib berishni so‘rasa (“menga ochishmadi, senga albatta ochishadi” degan bahona bilan), rozi bo‘lma!



Notanish kimsa senga shirinlik, muzqaymoq olib berishni yoki biror uy hayvonini ko‘rsatishni aytsa, birga borma. Qo‘lidan hech narsa olib yema.



Ko‘chada notanish odam telefoningni berib turishingni, bir odamga qo‘ng‘iroq qilib olishi lozimligini aytsa, telefoningni unga berma!

YO'LDA VA JAMOATCHILIK TRANSPORTIDA

Yo‘lni faqat svetoforning yashil chirog‘i yonganda kesib o‘tish mumkin. Shunda ham piyodalar o‘tishi uchun mo‘ljallangan maxsus yo‘lakdan (“zebra”dan) yur.

Yashil chiroq yongandan keyin ham hamma mashinalar to‘xtaganiga va xavf yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, yo‘ldan o‘t.

Avtobus va trolleybusning orqasidan, tramvayning oldidan o‘tish kerak degan qoida bor. Shunga qaramay, ularning yurib ketishini kutib, keyin yo‘ldan o‘tganing ma’qul. Shunda ham maxsus piyodalar o‘tish yo‘li bo‘ylab harakatlan, yo‘lni duch kelgan joydan kesib o‘tma.

Yo‘l chetiga to‘xtatib qo‘yilgan avtomobillar orqasidan yo‘lga chiqma, harakatlanayotgan avtomobillar haydovchilari seni ko‘rmay qolishlari mumkin.

Hech qachon aftomobilning oldidan yugirib o‘tishga urinma, uning to‘xtashini kut va svetofor yoki maxsus o‘tish yo‘li orqali yo‘lni kesib o‘t.

- Har ikki yo‘nalishdagi avtomobillar to‘xtab bo‘lgach yo‘ldan o‘tishni boshlash kerak. Mabodo, yo‘lning yarmiga kelganingda avtomobillar harakatlanishni boshlasa, yugurma, yo‘l o‘rtasidagi “xavfsizlik orolchasi”da (agar u bo‘lmasa, uzluksiz oq chiziq ustida) to‘xtab tur.

- Avtomobilning ishoralarini (signal, burilish va to‘xtash chiroqlari) tushunishni o‘rgan. Ular avtomobil nima qilmoqchi ekanini senga anglatadi, shunga qarab qaror qabul qilasan.

- Jamoat transportini maxsus bekatlardagina kutish mumkin. Bunda yo‘lning qatnov qismidan kamida 1 metr narida turish kerak.

- Transport butkul to‘xtab bo‘lgachgina, unga chiqish mumkin.

- Eshik oldida turma, unga suyanma.

- Transportdan tushishga ertaroq tayyorlan va u to‘xtab bo‘lgandan keyingina tush.

- Yo‘ldan o‘tish uchun eng xavfsiz usul yerosti o‘tish yo‘lidir.



METRODA

Eskalatorning o‘ng tomonida turish, chap tarafdan yurish mumkin (ammo yugurish mumkin emas), bunda tutqichni ushlash kerak.

Eskalatorning tutqichlari tagiga barmog‘ingni, pillapoyalar orasidagi yoriqqa poyafzaling tumshug‘ini tiqma. Eskalator pillapoyalariga o‘tirma.



Poyezd kutayotganingda, platforma qirg‘og‘idan uzoqroq tur, poyezdga chiqmoqchi bo‘lgan odamlarning birinchi qatoriga turma. Chunki odamlar poyezd yaqinlashayotganida platforma chetiga yaqin kelib, seni tasodifan turtib yuborishlari mumkin.

Platforma chetidagi sariq chiziqdan o‘tma, poyezd yaqinlashganda, birinchi vagonning orqani ko‘rsatuvchi oynasi seni turtib yuborishi mumkin.

Relslar orasiga biror buyuming tushib ketsa, uni o‘zing olishga urinma – bekat navbatchisiga ayt. U maxsus moslama yordamida buyumingni olib beradi.



Agar baxtsiz tasodif tufayli metro relslariga tushib ketsang:

O‘zing mustaqil yoki platformadagi kattalar yordamida tepaga chiqishga urinma. Chunki aynan platformaning **cheti bo‘ylab 850 Volt** kuchlanishga ega elektr toki o‘tganini ba’zan kattalar ham bilmasligi mumkin.

Agar poyezd hali kelmayotgan bo‘lsa, relslar orasidagi chuqur yo‘lakdan platformaning boshiga qarab yur, u yerda **oq-qora yo‘lli joy bor** (poyezning birinchi vagoni shu yerga taqab to‘xtaydi). Shunda mashinist seni ko‘radi va poyezdni to‘xtatadi.

Agar poyezd platformaga kirib kelgan bo‘lsa, relslar orasidagi chuqur joyga yuzingni yerga qaratib yotib ol. Boshingni imkon qadar yerga yaqin qil, kiyimlaringni tanangga mahkam yig‘ishtirib ol. Agarda kurtkada bo‘lsang, iloji bo‘lsa uni yechib tashla (kopyushoni yoki belbog‘i poyezd tagidagi detallarga ilinib qolishi mumkin). Bu yo‘lakcha ancha chuqur, u yerga katta odam ham sig‘adi. Albatta, poyezd tagida yotish qo‘rqinchli, ammo o‘sha vaziyatda eng xavfsiz chora shu. Poyezd ketishi bilan platformaning boshiga qarab yur. U yerda bekat xizmatchilari seni chiqarib olishadi.



KO'P QAVATLI UYLAR YO'LAGIDA

Uyga yaqinlashar ekansan, ortingdan birov ta'qib etmayotganiga e'tibor qarat. Agar kimdir ortingdan kelayotgan bo'lsa, yo'lakka kirmay, tashqarida o'ynab tur. Notanish kimsa o'tib ketgach, yo'lakka kir. Bordi-yu xavf bartaraf bo'lmasa va u odam sendan uzoqlashmasa, yaqin atrofdagi do'kon, pochta, go'zallik saloni, kutubxona kabi odam ko'p joyga kirib, seni xavotirga solayotgan kimsa haqida u yerdagilarga aytib ber.



Agar yo'lakka kirganingda seni begona odam kutib turganini ko'rsang, darrov tashqariga chiq va kattalardan kimdir kelishini kut. U bilan birga yo'lakka kir.



Liftga chiqayotganingda atrofga qara, ortingdan sen bilan liftga kirib olishi mumkin bo'lgan begona insonni ko'rsang, liftga chiqma. Nimadir esingga tushib qolgandek, uni liftga kiritib yubor va o'zing uyga (ko'chaga) qayt.



Agar notanish odam bilan liftga kirib qolsang, unga yuzma-yuz tur. Shunda nima qilayotganini kuzatib turasan. Xavfni sezsang, dispetcherga qo'ng'iroq tugmasini bos, baqir, yordamga chaqir.



VELOSIPEDLAR VA ROLIKLAR UCHAYOTGANDA



Qonunga ko‘ra, yo‘lda velosiped boshqarish **14 yoshdan kichik bo‘lmagan** shaxslarga ruxsat etiladi.



Velosipedlar yo‘lning chetki o‘ng bo‘lagida imkoni boricha **o‘ng tomonidan bir qator** bo‘lib harakatlanishi kerak.



Velosiped va roliklarda faqat **maxsus belgilangan yo‘laklarda** uchish mumkin.



Rolikni kiygan holda yo‘lni kesib o‘tma.

Yo‘lni kesib o‘tayotganda velosipeddan tushib, uning rulini ushlab “yetaklab” o‘tish kerak.





Yo‘lda harakatlanayotgan **transport vositalarini ushlab,** ularga “ilinib” velosipedni boshqarish yoki rolikda uchish mumkin emas.

Velosipedni sekin minishga o‘rganib olish kerak. Chunki sekin harakatlanayotgan velosipedda muvozanatni ushlab turish qiyin. Ayniqsa, shaharda ko‘pincha velosipedni sekin boshqarishga to‘g‘ri keladi.





Velosipedning tormozi sozlangan, shinalari me'yorda shishirilgan, nur qaytargichlari va qo'ng'irog'i mavjud bo'lishi kerak.

Velosiped boshqarishda muhim jihatlaridan biri **tormozni to'g'ri ishlata bilishdir.**








Yo'lning qatnov qismida velosipedda yurish mumkin emas.

Velosiped va rolikda uchganda, albatta, boshga **shlem, kaft, tirsak va tizzilarga himoyalovchi bog'lamlar** taqib olish lozim.





"To'g'ri" yiqilishni o'rgan. Uchayotib muvozanatni yo'qotayotganingni sezsang, biroz oldinga engash va tirsaklarni sal bukkan holda qo'llaringni oldinga cho'z. Orqa tomonga yiqilmaslikka harakat qil, agar buning iloji bo'lmasa, dahaningni ko'kragingga tomon cho'z. Shunda boshing bilan yiqilishning oldini olasan.



Velosipedni **uchishni yaxshi o'rganib olmaguncha** yopiq maydonlar, stadionlar, parklar va hovlilarga kirma.

OLOMON ORASIDA

Eng muhimi – olomondan uzoqroq yur. Agar ko‘plab insonlar zich jamlangan joyga kirib qolsang, markazdan uzoqroq bo‘lishga harakat qil. Shuningdek, metall to‘siqlar, devorlar, peshtaxtalar, chiqindi qutilari, bir so‘z bilan aytganda, jarohat yetkazishi mumkin bo‘lgan **qattiq jismlardan yiroqda bo‘l.**

Olomonning orasini yorib o‘tish yoki unga qarshilik ko‘rsatishga harakat qilma. **To‘xtamasdan, olomon bilan birga harakatlanish kerak.**

Agar odamlar ustingga bosib kelishni boshlasa, darhol qo‘lingdagi predmetlarni yerga tashla, sharf, sumkalarni uloqtir. Qo‘llaring tanangga yopishmagan, aksincha tirsakdan bukilgan holda mushti tugilgan holda tepaga qaratilgan bo‘lishi kerak – shunda ko‘krak qafasingni himoya qilasan. Shuningdek, qo‘llaringni ko‘ksingga X shaklida biriktirib olishing ham mumkin.

Olomon orasida qolganda asosiy vazifa – yiqilmaslik. Mabodo yiqilib tushsang, iloji boricha tezroq turib olishga harakat qil. “To‘rt oyoqlab” turma, qo‘llaringga shikast yetishi mumkin.

Agar yiqilib tushgan bo‘lsang va o‘rningdan turolmasang, bo‘g‘irsoqqa o‘xshab munkayi ol. Boshingni bilaklaring ostiga yashir, kaftingni boshlaring orqasiga qo‘y.



Olomon orasida **vahima qilma, yugurma,** birovlarning qichqiriqlariga va turli chaqiriqlariga e’tibor berma.



Olomondan chiqqach, yo‘qotib qo‘ygan yo‘ldoshlaringni izlash uchun yana odamlar orasiga o‘zingni urma. Aksincha, bir chekkaga o‘tib olib, vaziyat tinchlanishini kut. Agar **militsiya** xodimlarini ko‘rib qolsang, ularga adashib qolganingni, hamrohlaringni yo‘qotganingni ayt.

Yashash manziling va ota-onangning telefon raqamlarini doim yodda tut.

Yaqin atrofda militsioner ko‘rinmasa, begona odamlarga yordam so‘rab murojaat qilma, notanish uylarning eshik qo‘ng‘iroqlarini bosma, yaxshisi yaqinroqdagi do‘kon, supermarket yoki biror muassasaga kirib yordam so‘ra.

JINOYATGA ARALASHIB QOLMASLIK UCHUN

1 Agar senga **“muyulishda qarab tur, birovni ko‘rsang hushtak chalib xabar ber”** degan mazmunda buyruq yoki iltimos qilishsa, hech qachon rozi bo‘lma! Ular shu paytda nima ish qilayotganlarini balki sen bilmasliging mumkin, ammo ularni tutishganda, sen ham bu ishga yordam berganingni albatta tilga olib o‘tishadi.



2 Agar birov sendan **“kalitimni yo‘qotib qo‘ydim, manavi darcha yoki tuynukdan ichkariga kirib, eshikni ochib ber”** deb iltimos qilsa, rozi bo‘lma! Bu uy o‘sha paytda aynan shu odamga tegishli ekanini ham, kalitini chindan yo‘qotib qo‘yganini ham bilmaysan.





3 Birov: **“narsam senda turib tursin, papkangga solib qo‘y, uyingga qo‘yib tur”** desa, rad et. Chunki bu buyumlar o‘g‘irlangan bo‘lishi mumkin.



4 **Do‘st tanlashda ehtiyot bo‘l.** Yomon insonlar davrasiga tushib qolish jinoyatga aralashish xavfini oshiradi.




5 **“Har doim shunday qilib kelganmiz, hech nima bo‘lmaydi”, “Falonchi ham shunday qildiku”** degan misollarga ishonma. Ular qo‘lga tushmagan bo‘lsa, bu doim shunday bo‘lishini anglatmaydi.


UYDA



- **Hech qachon xonadonga notanish kimsani kiritma.** Agar eshik qo‘ng‘irog‘ini bosishsa yoki taqillatishsa, indama, **“Kim u?”** deb so‘rama. Ota-onangning kalitlari bor, o‘zlari ochib kiradilar yoki telefon orqali qo‘ng‘iroq qiladilar.



- **Eshik taqillatganlar** o‘zini militsioner, shifokor, santexnik, elektr ustasi, soliq yoki majburiy ijro xodimi, kommunal xizmat ishchisi, ota-onangning tanishi va hokazo deb tanishtirishi mumkin. Ularga eshik ochma, chunki rost gapirgan bo‘lsalar ham, ular sen bilan hech bir masalani hal qila olmaydilar.



- **Uydan chiqishdan avval** eshikdagi teshikchadan tashqariga qara. Agar begona odamlarni ko‘rsang, eshikni ochma, ketishlarini kut.



- **Tashqaridan kelib** uy eshigini kalit bilan ochishdan avval atrofda hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qil.



YONG'IN XAVFSIZLIGI

Nosoz elektr asboblaridan foydalanma. Elektr uskunalarini bekorga yoqiq qoldirma.

Elektr uskunalariga ho‘l qo‘l bilan tegma.

Rozetkani o‘ynama, uning teshiklariga turli predmetlarni tiqma.

Ko‘chada noma’lum sim o‘tkazgichlar va uskunalarga yaqin borma. Elektr transformatorlarga tegma.



Uydan chiqishda chiroqni va elektr uskunalarini o‘chirib ket.

Olov va o‘t chiqaradigan buyumlarni (gugurt, sham, olov yoqqich) o‘ynama.

Kattalar nazoratisiz tez yonuvchan suyuqliklarga (atseton, benzin, kerosin, eritkich) tegma.

Gaz plitasini yoqiq qoldirma. Ehtiyoj bo‘lmasa, plitaga yaqinlashma.

Paqildoqlar, bengal olovlari va solyutlarni sotib olma va o‘ynama.

Yong‘in chiqqanda, iloji boricha tezroq tashqariga chiqib olishga harakat qil va kattalarga xabar ber.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi nimalarni bilishi kerak?





- yong‘in o‘chog‘ini aniqlashni;
- yong‘in chiqqan binodan tashqariga chiqishni;
- kattalarni yordamga chaqirishni;
- yong‘in o‘chirish brigadasini chaqirishni (raqam terishni, manzilni aytishni, mo‘ljal berishni);

Maktabgacha yoshdagi bola nimalarni bilishi kerak?



- xavfli vaziyat yuzaga kelganini;
- yong‘in chiqqan binodan tashqariga qochib chiqishni;
- kattalarni yordamga chaqirishni.



Yuqori sinf o'quvchisi nimalarni bilishi kerak?



- uy ichidagi yoki tashqaridagi yong‘in o‘chog‘ini aniqashni;
- yong‘in bo‘layotgan joydan chiqib ketishda oila a’zolariga yordam berishni;
- yong‘in chiqqanda oila a’zolarini evakuatsiya qilish rejasini tuzishni;





- inson egnidagi yonayotgan kiyimni o‘chirish qoidalarini;
- kuygan odamga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni;
- yong‘inga qarshi maishiy profilaktika qoidalarini.







INTERNET XAVFSIZLIGI

- Internetda shaxsiy ma’lumotlaringni oshkor qilma, ijtimoiy tarmoq va messenjerlarga asl ism-familiyang, suratingni qo‘yma (“nik”lardan foydalan).
- Biror shubhali axborotni ko‘rib qolsang (tajovuz, pornografiya, shafqatsizlik va h.k.) darhol ota-onangga ma’lum qil.
- Virtual olamda tanishgan, hayotda ko‘rmagan notanish inson bilan uchrashuvlarga rozi bo‘lma.



- Behayo mavzular va diniy masalalar muhokama qilinadigan forumlar va chatlardan yiroq yur.
- Ijtimoiy tarmoqdagi “tanishlar”ga ishonma.
- Tarmoqda jinsingni ma’lum qilma (tajovuzkor zo‘ravonlardan himoyalanish uchun).
- O‘zingdan yoshi ancha katta insonlar bilan do‘stlashma, ularga siringni aytma.
- Shaxsiy ma’lumotlarni onlayn-do‘stlaringga yuborma.
- Tarmoqda o‘ynaladigan o‘yinlarga qiziqma.
- Internetda uchragan odam real hayotdagidan umuman farq qilishi mumkinligini yodda tut.

OTA-ONALARGA ESLATMA

Parolimiz nima ekan qizim?




1 Farzandlaringiz bilan oilaviy parol so‘zlarni tanlab, favqulodda vaziyatlarda biror xavfdan ogohlantirish yoki xabar berish uchun shu parolni qo‘llash haqida kelishib olinglar.

2 Agar farzandingiz uyga kattalar hamrohligisiz, yolg‘iz qaytadigan bo‘lsa, u bilan doimiy va xavfsiz yo‘nalishni kelishib oling hamda bolaga hamisha shu yo‘ldan yurishini uqtiring.



3 Farzandingizga uyning kalitini ehtiyot qilishni o‘rgating. Mabodo kalitni yo‘qotib qo‘ysa, qanday yo‘l tutishini o‘rgating. Uydan chiqayotganda bola har doim kalitni olgan-olmaganini tekshirishi kerak.



4 Bolaga ko‘chada o‘ynayotganda qaysi chegaradan tashqariga chiqmasligini, qayergacha borish mumkinligini belgilab bering.



5 Farzandingiz sizning yoningizda bo‘lmagan, bo‘sh vaqtini mustaqil o‘tkazgan vaqtlarda nimalar bo‘lganini aytib bersin. Unda shu odatni shakllantiring.





6 Bola o‘zining va ota-onasining ism-familiyasini, uy manzilini va yaqinlarining telefon raqamlarini yaxshi bilishi kerak. Bu bolaga ko‘chada adashib qolganida yoki boshqa favqulodda vaziyatga tushib qolganida yordam beradi.

7 Bolalar tez yordamga, militsiyaga, favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam xizmatiga, yong‘in xavfsizligi xizmatiga qachon, qanday vaziyatlarda qo‘ng‘iroq qilishi lozimligini bilishi kerak. Uyingizda ko‘zga ko‘rinadigan joyga ushbu telefon raqamlarini yozib qo‘ying.





8 Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlaringizni (ish joyingiz, yashash manzilingiz, ish jadvalingiz) hamda farzandlaringizga oid ma’lumotlarni (suratlari, o‘qiydigan maktabi, sinfi, ism-familiyasi) oshkor qilmang.

KERAKLI RAQAMLAR

